



SURXONDARYO VILOYATIDA TURISTIK-REKREATSION KLASTERLARNI
SHAKLLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI OMILLAR SWOT TAHLILI

Shodmonova Saltanat

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

ORCID: 0009-0001-5836-6502

osoyo-niso@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizmni rivojlantirish va turistik-rekreatsion obyektlardan samarali foydalanish va Surxondaryo viloyatida turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar SWOT tahlili haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: rekreatsion turizm, "health and fitness tour" yoki "resort tour", sarguzasht, sport va ekstremal turizm, speleoturizm, ekzotik turizm, ekoturizm, SWOT tahlil.

SWOT-АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, СПОСОБСТВУЮЩИХ ФОРМИРОВАНИЮ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННЫХ КЛАСТЕРОВ В СУРХАНДАРЬИНСКОМ ОБЛАСТИ

Шодмонова Салтанат

Термезский университет экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье представлена информация по SWOT-анализу факторов, способствующих развитию туризма и эффективному использованию туристско-рекреационных объектов и формированию туристско-рекреационных кластеров в Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: рекреационный туризм, «оздоровительный тур» или «курортный тур», приключенческий, спортивно-экстремальный туризм, спелеотуризм, экзотический туризм, экотуризм, SWOT-анализ.

SWOT ANALYSIS OF FACTORS CONTRIBUTING TO THE FORMATION OF TOURIST AND RECREATIONAL CLUSTERS IN SURKHANDARYA REGION

Shodmonova Saltanat

Termez University of Economics and Service

Abstract. This article provides information on the SWOT analysis of factors contributing to the development of tourism and the effective use of tourist and recreational facilities and the formation of tourist and recreational clusters in the Surkhandarya region.

Keywords: recreational tourism, "health and fitness tour" or "resort tour", adventure, sports and extreme tourism, speleotourism, exotic tourism, ecotourism, SWOT analysis.

Kirish.

Hozirgi kunda turizm sohasida klaster usuli jahon tajribasida samarali modellardan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Turizm sohasidagi klaster rivojlanishi rekreatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir qator davlatlarda ushbu yondashuv muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Klaster konsepsiyasining yangiligi va ahamiyati turizm sohasida tashkilotchilik va ilmiy tadqiqotlarning ko'paytirilishini talab qiladi.

Turistik klasterlar iqtisodiy jarayonlarda qo'shimcha qiymat zanjiri sifatida faoliyat yuritadi. Ya'ni, hududdagi turizmga bog'liq bizneslar o'zaro hamkorlik qilish orqali umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bu jarayonda mehmonxonalar, restoranlar, transport kompaniyalari, ekskursiya tashkilotlari va savdo markazlari birgalikda ish yuritib, bir-biriga qo'shimcha qiymat yaratish orqali turistik sohaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Shu tariqa, turistik klasterlar nafaqat ma'lum bir hududdagi infratuzilmani rivojlantirish, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham katta hissa qo'shadi. Ular turistik xizmatlarning sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va mahalliy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotimiz davomida bir qator taniqli xorijiy olim va tadqiqotchilar tomonidan rekreatsiya va turizm sohasiga oid nazariy-uslubiy masalalar o'rganildi. **Yevropalik olimlardan Piter Kellering fikricha, turistik klasterlar - bu muayyan turistik yo'nalishdagi turli kompaniyalar va tashkilotlarning o'zaro hamkorligi bo'lib, ular birgalikda turistik mahsulotlarni yaratish va rivojlantirishga qaratilgan¹.**

Gans Xrummen turistik klasterni muayyan hududdagi turizm bilan bog'liq bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning tarmog'i sifatida ta'riflaydi, bu tarmoq o'zaro hamkorlik va raqobat orqali innovatsiya va samaradorlikni oshirishga qaratilgani haqida ta'kidlaydi².

MDH davlatlarining olimlari Bublik, Gubaryovalar (2018) "turistik-rekreatsion resurs"lar atamasiga "bu ma'lum bir obyekt (hudud) bilan bog'liq tabiiy va texnogen jismlar va hodisalar, shuningdek turistik mahsulotni shakllantirish va tegishli sayohatlar, ekskursiyalar, dasturlarni amalga oshirish uchun mos sharoitlar, imkoniyatlar va vositalar to'plami" deya ta'rif beradi.

V.S.Krutov esa "turistik-rekreatsion resurslarni geografik omillar orqali tavsiflab, ularni hududiy o'rganish muhimligini ta'kidlagan. Krutov turistik-rekreatsion resurslar nafaqat tabiat yoki madaniy meros obyektlaridan, balki iqtisodiy va infratuzilmaviy imkoniyatlardan ham iboratligini ta'kidlagan (Alimov, 2018).

Ushbu olimlarning ilmiy adabiyotlarini tahlil qilish orqali turizm sohasidagi eng so'nggi nazariyalar, uslublar va tendentsiyalar bilan tanishish va nazariy asos yaratishga, turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini chuqurroq tushunishga va O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida abstraksiya, tahlil va sintez, monografik kuzatish, taqqoslash, statistik guruhlash, tizimli tahlil, grafik ifodalash va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Rekreatsion turizm (recreation - tiklanish) – insonning dam olishi va jismoniy tiklanishiga qaratilgan sayyoqlik turi bo'lib, u asosan sog'lomlashtirish va davolash maqsadlarini qamrab oladi. Turizmning ushbu yo'nalishi ayrim davlatlar uchun eng ommaviy va rivojlangan soha hisoblanadi.

¹ https://www.researchgate.net/publication/284762862_Peter_Keller_A_Pioneer_of_a_Sustainable_Tourism_Policy. "Tourism Clustering & Innovation - Paths to Economic Growth & Development"

² ResearchGate "Tourist destination governance through local elites: Looking beyond the stakeholder level".

Sog'lomlashtirish va davolash maqsadida amalga oshiriladigan turizm "health and fitness tour" yoki "resort tour" sifatida belgilanadi. Bu yo'nalihsda sanatoriylar, kurortlar, pansionatlar kabi tibbiy-reabilitatsiya muassasalari shifobaxsh suvlari, davolovchi balchiqlar va boshqa tabiiy resurslar yordamida sog'lomlashtiruvchi xizmatlar ko'rsatadi.

Mineral suvlari dam olish va sog'lomlashtirish turizmida muhim o'rinn tutadi. Ular oddiy suvlardan yuqori mineral tarkib, harorat, mikroelementlar, organik moddalar va erigan gazlar miqdori bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar ularning shifobaxshlik imkoniyatlarini oshiradi. Xususan, Surxondaryo viloyati tabiiy shifobaxsh resurslari bilan boy hududlardan biri hisoblanib, bu yerdag'i Boysun tumanidagi Omonxona va Xo'jamayxona, Oltinsoy tumanidagi Xo'jaipok, Sherobod tumanidagi G'o'rgebnuloq va Jarqo'rg'on tumanilagi Gidrouzel kabi mineral va yer osti suvlari Gruziyaning Barjomi mashhur suv manbalaridan farq qilmaydi.

Rekreatsion turizm insonning dam olishi va sog'lomlashishiga qaratilgan sayyoohlilik turi bo'lib, uning asosiy xususiyati – sayyoohlarning bir hududda uzoq muddat qolishi va sayohat marshrutlarining nisbatan cheklangan bo'lishidir. Bu turizm yo'nalihsida aviatsiya transporti, ayniqsa, charter reyslari keng foydalaniadi.

Surxondaryo viloyati tabiiy shifobaxsh resurslari bilan boy hududlardan biri hisoblanib, bu yerdag'i Omonxona, Xo'jamayxona, Xo'jaipok, G'o'rgebnuloq va Gidrouzel kabi mineral va yer osti suvlari hamda Xo'jaikon tuz g'ori sog'lomlashtiruvchi turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu tabiiy shifo manbalari Boysun, Sherobod, Jarqo'rg'on va Oltinsoy tumanlarida joylashgan bo'lib, Xo'jaipok, Sangardak, Omonxona, Xo'jaikon tuz g'ori sanatoriylar va sog'lomlashtirish maskanlari tashkil etilgan.

Sarguzasht, sport va ekstremal turizm - Mazkur turizm turi qo'rqinch va adrenalinni his qilishni istagan sayyoohlolar uchun mo'ljallangan bo'lib, Surxondaryoning keng dasht va cho'llari (Katta Qo'm – Baqtriya cho'li), tog' yonbag'irlari va daralari ushbu turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

- Boysun-Tangisar darasi va Sariosiyo-Hazrati Sulton cho'qqisi ekstremal sport turlariga – alpinizm, qoyatoshdan tushish va tog' sayyohati uchun juda mos joylardir.

- Milliy sport o'yinlari, xususan, kurash va ko'pkari musobaqalari ham sayyoohlarning qiziqishini orttirib, ular uchun mahalliy madaniyatni o'rghanish imkonini beradi.

Speleoturizm - G'orshunoslik bilan qiziquvchi turistlar uchun Surxondaryodagi g'orlar ayniqsa qiziqarli manzil hisoblanadi. Boysun tumanida joylashgan Xo'ja G'ur-G'ur ota massivi va undagi Boybuloq – Qorong'u yulduz g'ori sayyoohlolar uchun noyob tabiat va sirli joylar bilan tanishish imkonini beradi. Bu yerda ekspeditsiya usulidagi sayyohatlar uyushtirilib, tabiat va geologiya bilan qiziquvchi mutaxassis va tadqiqotchilarni jalb qilish mumkin.

Ekzotik turizm - Ekzotik turizm tabiat va milliy an'analar bilan bog'liq bo'lib, Surxondaryo viloyati bu sohada ham katta salohiyatga ega.

- Ov va baliq ovlash – sayyoohlolar uchun qiziqarli va noyob tajriba taqdim etadi.

- Madaniy-ta'limiy tadbirlar – teatrlashtirilgan sahnalar va xalq an'analar bilan bog'liq tadbirlar sayyoohlolar uchun milliy madaniyatni yaqindan his qilish imkonini yaratadi.

- Ekologik turizm - Surxondaryo viloyati noyob tabiat va qo'riqxonalarga boy hududlardan biri bo'lib, ekologik turizm rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar mavjud.

- Surxon davlat qo'riqxonasi – O'zbekistonning biologik xilma-xilligini saqlab qolishga xizmat qiladigan hudud bo'lib, bu yerda sayyoohlolar noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini ko'rishlari mumkin.

- Oqtepa suv ombori – tabiat qo'ynida hordiq chiqarish, sayr qilish va suvda dam olish uchun juda qulay joy.

- Ekoturizm maskanlari – Surxondaryoda ekoturizmni rivojlantirish uchun maxsus hududlarni ajratib, sayyoohlarga tabiatni asrab-avaylashga yo'naltirilgan madaniy-ta'limiy sayyohatlar taklif etish mumkin.

Rekreatsion turizm ijtimoiy-madaniy xizmatlar turi sifatida insonlarning sog'lomlashishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. U sanatoriy-sog'lomlashtirish xizmatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Sanatoriy-kurort xizmatlari sog'lomlashtirish yo'nalishida muhim hisoblanib, ularning rivojlanishi mintaqadagi iqlim sharoiti va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga bog'liq.

Rekreatsion zonalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- Shifobaxsh iqlim va tabiiy resurslarga ega bo'lishi,
- Tegishli infratuzilma obyektlari mavjudligi,
- Sanatoriylar va davolash-profilaktika muassasalari joylashgan hudud bo'lishi,
- Mineral suvlar, davolovchi balchiqlar va tabiatning boshqa shifobaxsh elementlaridan foydalanish imkoniyati.

Sanatoriy – insonlarning dam olishi va davolanishi uchun mo'ljallangan muassasa bo'lib, u tabiiy resurslar asosida samarali faoliyat yuritishi kerak. Sanatoriy-kurort xizmatlari bir nechta yo'nalishlarga bo'linadi:

- Yashash uchun qulay sharoitlar (mehmonxona, pansionat) yaratish,
- Sanatoriylarda davolash va tiklanish xizmatlari,
- Kasalliklarni oldini olish maqsadida tashkil etilgan sanatoriy profilaktoriylar,
- Kurort poliklinikalaridagi tibbiy xizmatlar,
- Mineral suvlar bilan davolash markazlari (balneologik davolash xonalari),
- Balchiq bilan davolash joylaridagi xizmatlar.

Turistik-rekreatsion klasterlarni rivojlantirishda SWOT tahlili muhim rol o'ynaydi. Ushbu tahlil orqali viloyatning kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, imkoniyatlar va taxdidlar aniqlanadi. Quyida Surxondaryo viloyati uchun har bir kategoriya bat afsil tahlil keltiriladi.

1-jadval

Turistik-rekreatsion klasterlarni rivojlantirish SWOT tahlili

S	<i>Strengths - Kuchli tomonlar</i>	Boy tarixiy va madaniy meros	<ul style="list-style-type: none"> - YUNESKOga nomzod bo'lgan Boysun madaniy landshafti – noyob etnografik va folklor an'analari mavjud. - Arxeologik yodgorliklar – Kampirtepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa kabi qadimiy shaharlar sayyohlarni jalgiladi. - Ziyorat turizmi – Hakim at-Termizi, Imom Termizi va boshqa muqaddas joylar ziyoratchilar uchun jozibali maskanlar hisoblanadi.
		Tabiiy resurslar va ekoturizm imkoniyatlari	<ul style="list-style-type: none"> Hisor tog'lari, Boysun tog'leri, Surxon daryosi – ekologik va ekstremal turizmni rivojlantirish imkoniyatini beradi. G'orlar turizmi – Teshiktosh, Machay, Xo'ja g'ur-g'ur ota kabi g'orlar turistlar uchun qiziqarli manzillar hisoblanadi.
		Geostrategik joylashuvi	<ul style="list-style-type: none"> - Afg'oniston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaradosh – xalqaro turizmni rivojlantirish imkonini beradi. - Respublikada yagona daryo porti, temir yo'l va xalqaro aeroport mavjudligi – transport logistikasi uchun qulaylik.
W		Infratuzilmaning yetishmovchiligi	<ul style="list-style-type: none"> - Mehmonxonalar va dam olish zonalari kamligi – sayyohlar uchun qulay mehmonxonalar, kempinglar va kurortlar yetarli emas. - Yo'l-transport infratuzilmasi muammo-lari – ba'zi sayyohlik joylariga yo'llar yaxshi holatda emas.

	Weaknesses - Kuchsiz tomonlar Turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirishda to'sqinlik qiladigan asosiy kamchiliklar	Marketing va reklama kamligi	- Sanoat va maishiy chiqindilar – ayrim hududlarda ekologik holat turizm uchun noqulay. - Xalqaro darajadagi reklama kamligi – chet el sayyoohlari uchun reklama va PR ishlari yetarlicha olib borilmayapti. - Turistik onlayn platformalarda ma'lumotlarning kamligi – sayyoohlар uchun qulay axborot manbalari cheklangan.
O	Opportunities - Imkoniyatlar	Xizmat ko'rsatish sifatining pastligi	- Gidlar va ekskursovodlar kamligi – turistlarga sifatli xizmat ko'rsatadigan malakali kadrlar yetishmaydi. - Turistik xizmat ko'rsatish standartlariga rioya etilmasligi – mehmonxona va restoranlar servisining yuqori darajada emasligi.
		Davlat va xalqaro qo'llab-quvvatlash	- Turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari – hukumat tomonidan turizmni qo'llab-quvvatlash uchun turli imtiyozlar va subsidiyalar ajratilmoqda. - Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati – yirik investorlar uchun maxsus imtiyozlar yaratish orqali turistik biznesni rivojlantirish mumkin. - Xayraton chegarasida Xalqaro savdo markazida 15 kun vizasiz bo'lish, davolanish va davlat bojisiz savdo qilish.
		Yangi turistik klasterlarni yaratish	- Ziyorat turizmi klasterlari – islomiy va buddaviy meros obyektlari asosida ziyorat turizmini rivojlantirish. - Ekologik va ekstremal turizm – rafting, velo-turizm, tog' sayyohati yo'naliishlarini ochish. - San'at va hunarmandchilik klasterlari – milliy hunarmandchilik va an'anaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.
T	Threats - Taxdidlar Turistik klasterlarni rivojlantirish jarayonida bir qator tashqi va ichki xavflar mavjud	Xorijiy hamkorlikni kuchaytirish	- Qo'shni daylatlar bilan transchegaraviy turizm – Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston bilan qo'shma turistik yo'naliishlarni yaratish, tibbiyot turizmini rivojlantirish. - Xalqaro aviaqatnovlarni ko'paytirish – Termiz aeroporti orqali xalqaro yo'naliishlarni ochish.
		Turizm sohasidagi yuqori raqobatchilik	- Qo'shni mamlakatlardagi turizm rivoji – Tojikistonda turistik infratuzilma tez rivojlanmoqda, bu esa raqobatni kuchaytiradi. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyatning kirish turizmini rivojlanishiga ta'siri. - O'zbekistondagi boshqa turistik hududlar bilan raqobat – Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar bilan raqobat qilish kerak.
		Ekologik va iqlimi xavflar	- Iqlim o'zgarishi – issiq va quruq iqlim turistik mavsumni cheklaydi. - Afg'on shamoli – qum bo'ronlarining tez-tez bo'lib turishi. - Tabiiy ofatlar – tog'li hududlarda sel kabi xavflar sayyoohlар oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
	Investitsiya va moliyalashtirish muammolari		- Iqtisodiy noaniqliklar – turizm sohasidagi sarmoyadorlarni jalb qilishda muammolar tug'ilishi mumkin. - Qonunchilikdagi o'zgarishlar – yangi soliq va investitsiya siyosatlari biznes uchun noqulay bo'lishi mumkin

Xulosa va takliflar.

Surxondaryo viloyati o'zining boy madaniy va tabiiy resurslari bilan O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Viloyatda turistik-rekreatsion klasterlar shakllantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shish mumkin. Davlat qo'llab-quvvatlashi, infratuzilmani yaxshilash va innovatsion yondashuvlar orqali Surxondaryo turistik markazga aylanishi mumkin.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish hududlarning mavjud imkoniyatlari va salohiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakat mintaqalarida turistik-rekreatsion obyektlarni rivojlantirish darajasini baholash va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, rekreatsion turizmni keng qamrovli yo'nalish sifatida rivojlantirish va turistik xizmatlar bozorida uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali turizm sohasini qisqa muddatda rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Mamlakat hududlarida turistik-rekreatsion faoliyatni samarali boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri sifatida turistik-rekreatsion xizmatlar klasterlarini shakllantirish orqali turistik bozorni rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri deb qaralmoqda.

Xalqaro turizmni rivojlantirish va turistik-rekreatsion obyektlardan samarali foydalanish O'zbekistonda turizmning bir qancha yo'nalishlari, jumladan, ekoturizm, ma'rifiy, madaniy, jismoniy sayohatlar, ekstremal turizm, arxeologik sayyohatlar, rafting, xeliski, sport, folklor-ethnografik, tibbiy, agroturizm va geoturizm kabi turlarni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday imkoniyatlar klaster yondashuvi orqali turizm sohasini rivojlantirish uchun strategik muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar / Литература/Reference:

Alimov A.K. (2018) *Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari. (Ph.D) falsafa doktori.diss.avtoref. Samarqand.*

Hamidov O.H. (2017) *O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mechanizmini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) dissertasiysi avtoreferati. Samarqand.*

Ibadullaev N. (2010) *Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). Iqt.fan.nomzodi diss. avtoreferati. Samarqand.*

Matyakubov U.R. (2011) *Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorli-gini oshirish yunalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida). Iqt.fan.nomz.diss.avtoref. Samarqand.*

Ro'ziev S. (2009) *O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. Iqt. fan...diss. – Toshkent.*

Бублик В.А., Губарева А.В., Щекочихина Е.П., Гудовичева Л.Б. и др. (2018) *Стратегия развития международных и внешнеэкономических связей Российской Федерации: колл. монография / М.*